

UO‘K(UDC, УДК): 821.512.133–3.09

XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “O‘N SONIYA” HIKOYASINING BADIY-ESTETIK TAHLILI²⁸

Ubaydullayeva Gulruh G‘ayratovna

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Qarshi, O‘zbekiston

Email: gul1888@mail.ru

ORCID ID: 0009-0004-2402-8945

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘n soniya” hikoyasi zamonaviy adabiyotshunoslikning nazariy yondashuvlari asosida badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi hikoyada vaqtning shiddati, shaxs ongining siqilgan makonda namoyon bo‘lishi va hayotiy tanlovlarning badiiy modellashirilish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada muammo sifatida zamonaviy nasrda vaqtning konsepsiyasi tezligi va inson ongining ushbu jarayonga moslashuvi masalasi qo‘yildi. Tadqiqot metodologiyasi rus, g‘arb va o‘zbek adabiyotshunoslik maktablari ishlab chiqqan nazariy qarashlarga tayangan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida falsafiy, psixologik va strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijasida hikoya sport syujeti doirasidan chiqib, inson umrining ontologik modeli sifatida talqin qilinishi asoslab beriladi, hikoyadagi yuz odimli masofa va o‘n soniya vaqt oralig‘i inson umrining ramziy modeli sifatida talqin qilindi. Asarda sport syujeti orqali insonning ichki kechinmalari, axloqiy tanlovi va ma‘rifiy uyg‘onishi yoritilgani aniqlandi. Hikoyaning ochiq yakuni va ramziy tuzilishi o‘quvchini faol talqinga chorlovchi estetik mexanizm sifatida baholash mumkin. Xulosa sifatida hikoya zamonaviy o‘zbek nasrida shaxs, zamon va ong muammolarini falsafiy-psixologik darajada yoritgan muhim badiiy hodisa ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

KALIT SO‘ZLAR

Badiiy tafakkur, zamonaviy o‘zbek nasri, vaqt kategoriyasi, shaxs va zamon munosabati, ramziy makon, psixologik tahlil, ochiq kompozitsiya.

Received: November 23, 2025

Accepted: December 23, 2025

Available online:
February 25, 2026

²⁸ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Ubaydullayeva G. Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘n soniya” hikoyasining badiiy-estetik tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 393-405.

**ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗА
ХУРШИДА ДУСТМУХАММАДА “ДЕСЯТЬ СЕКУНД”****Убайдуллаева Гульрух Гайратовна**

Независимый исследователь,

Каршинского государственного университета,

Карши, Узбекистан

Email: gul1888@mail.ru

ORCID ID: 0009-0004-2402-8945

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказ Хуршида Дустмухаммада “Десять секунд” анализируется с художественно-эстетической точки зрения на основе теоретических подходов современного литературоведения. Целью исследования является выявление особенностей художественного моделирования стремительности времени, проявления сознания личности в сжатом пространстве и жизненных выборов в рассказе. В статье в качестве проблемы рассматривается вопрос о концепции скорости времени в современной прозе и адаптации человеческого сознания к этому процессу. Методология исследования опирается на теоретические взгляды, разработанные русскими, западными и узбекскими школами литературоведения. В процессе исследования применялись методы философского, психологического и структурного анализа. В результате анализа обосновывается, что рассказ выходит за рамки спортивного сюжета и интерпретируется как онтологическая модель человеческой жизни, где дистанция в сто шагов и десятисекундный интервал трактуются как символическая модель человеческой жизни. Установлено, что через спортивный сюжет в произведении раскрываются внутренние переживания человека, его нравственный выбор и духовное пробуждение. Открытый финал и символическая структура рассказа могут рассматриваться как эстетический механизм, побуждающий читателя к активной интерпретации. В заключение научно обосновывается, что рассказ является важным художественным явлением в современной узбекской прозе, освещающим проблемы личности, времени и сознания на философско-психологическом уровне.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Художественное мышление, современная узбекская проза, категория времени, отношение личности и времени, символическое пространство, психологический анализ, открытая композиция.

**ARTISTIC AND AESTHETIC ANALYSIS OF KHURSHID
DOSTMUHAMMAD'S STORY "TEN SECONDS"****Ubaydullaeva Gulruh Gayratovna**Independent Researcher, Karshi State University
Karshi, UzbekistanEmail: gul1888@mail.ruORCID ID: 0009-0004-2402-8945

ABSTRACT

This article provides an artistic and aesthetic analysis of Khurshid Dostmuhammad's story "Ten Seconds" based on theoretical approaches of modern literary studies. The research aims to examine the intensity of time in the story, the manifestation of individual consciousness in a confined space, and the artistic modeling of life choices. The article addresses the issue of time's accelerated concept in modern prose and how human consciousness adapts to this process. The research methodology relies on theoretical perspectives developed by Russian, Western, and Uzbek schools of literary criticism. The study employs philosophical, psychological, and structural analysis methods. The analysis demonstrates that the story transcends its sports-based plot to serve as an ontological model of human life, with the hundred-step distance and ten-second interval symbolically representing a human lifespan. The work is shown to illuminate inner experiences, moral choices, and intellectual awakening through its sports narrative. The story's open ending and symbolic structure can be viewed as aesthetic mechanisms that invite active reader interpretation. In conclusion, the article scientifically establishes that the story is a significant artistic phenomenon in modern Uzbek prose, addressing issues of individuality, time, and consciousness on a philosophical and psychological level.

KEY WORDS

Artistic thinking,
modern Uzbek prose, time
category, relationship
between individual and
time, symbolic space,
psychological analysis,
open composition.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda vaqt, shaxs va qahramon ruhiyati munosabatlarini badiiy jihatdan talqin etish muammosi dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy hayot sur'atining jadallashuvi nasriy asarlarda siqilgan makon va vaqt modeli orqali inson ruhiyatini chuqur tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, kichik hajmli hikoyalarda ramziy syujetlar asosida hayotiy tanlov, axloqiy mas'uliyat va ichki kechinmalar badiiy modellashiriladi. Bunday asarlarda vaqt faqat voqealar fonida emas, balki estetik va falsafiy mazmun tashuvchi faol unsur sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, sport syujeti asosida qurilgan asarlar zamon shiddati va shaxs ongining o'zaro munosabatlarini yoritishda muhim badiiy vositaga aylanadi. Mazkur maqolada ana shunday yondashuv asosida yaratilgan Xurshid Do'stmuhammadning "O'n soniya" hikoyasi zamonaviy adabiyotshunoslikning nazariy qarashlari asosida badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Xurshid Do'stmuhammad ijodida zamonaviy inson tafakkuri, vaqt va ruhiyat muammolari markaziy o'rin tutadi. O'n soniya hikoyasi ham mazkur yo'nalishning yorqin namunasi bo'lib, tashqi jihatdan sodda syujet asosida qurilgani holda, ichki mazmuni jihatidan murakkab falsafiy-psixologik qatlamlarga ega asardir. Hikoya sport poygasi yuz odimlik yugurish tasviri bilan boshlanadi, biroq muallif bu voqeani realistik maqsadda emas, balki inson hayotining ramziy modeli sifatida talqin qiladi.

Hikoyaning badiiy konsepsiyasida vaqt markaziy estetik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Hikoya nomining o'ziyoq "O'n soniya" inson hayotida qisqa lahazar ichida hal qilinadigan taqdiri qarorlar mavjudligi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari suradi. Muallif soniyalarni mexanik vaqt birligi sifatida emas, balki ruhiy keskinlik, ichki kurash va ong oqimi bilan to'yingan psixologik holat sifatida tasvirlaydi. Qahramon yugurishga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda vaqt go'yo sekinlashadi, uning har bir fikri, nafas olishi va ichki dialogi soniyalarga sig'diriladi.

Avvalo, hikoyadagi vaqtning o'ta siqilgan, intensiv shaklda tasvirlanishi rus adabiyotshunosligi vakili Mixail Baxtin ishlab chiqqan badiiy vaqt va makon birligi haqidagi konsepsiya bilan izohlanadi. Baxtin nazariyasiga ko'ra, "*badiiy asarda vaqt faqat fon emas, balki syujet, obraz va g'oyani tashkil qiluvchi faol unsuridir*". (Baxtin M., 1975, 231) "O'n soniya"da vaqt soniyalarga bo'linib, inson umrining modeli sifatida beriladi; bu holat Baxtin ta'riflaganidek, badiiy voqelikning "hayotiy mazmun bilan to'yingan vaqt"ga aylanganini ko'rsatadi. Yuz odimli masofa – bu shunchaki makon emas, balki vaqt bilan uzviy qo'shilib ketgan estetik hodisadir. G'arb adabiyot nazariyasida vaqt va ong munosabatiga katta e'tibor qaratgan Henri Bergsonning "davomiylik" haqidagi konsepsiyasi ham ushbu hikoyani talqin qilishda muhim. Bergson fikricha, "*inson vaqti mexanik o'lchovlarga bo'ysunmaydi; u ichki kechinmalar bilan*" belgilanadi. (Bergson H., 1913, 88) "O'n soniya"da soniyalar matematik birlik sifatida emas, balki hayajon, qo'rquv, ishonch va intilish bilan to'lib-toshgan ruhiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan hikoya modern adabiyotga xos bo'lgan subyektiv vaqt idrokini o'zida mujassam etadi. O'zbek adabiyotshunosligida esa badiiy asarni inson va zamon munosabati nuqtayi nazaridan talqin qilish an'anasi kuchli. B. To'rayeva va U. Ko'chimovlarning nazariy qarashlarida *badiiy asar jamiyat tafakkurining mahsuli sifatida talqin qilinadi*. (To'rayeva B., Ko'chimov U., 2022, 108) Shu nuqtayi nazardan, "O'n soniya" hikoyasi zamonaviy o'zbek jamiyatida tezlik, raqobat va shiddatning inson ruhiyatiga qilayotgan bosimini aks ettiruvchi estetik hujjatdir. Hikoyada shaxs jamiyatdan ajralmagan, balki uning shiddatli ritmiga bog'langan holda tasvirlanadi.

Hikoyaning falsafiy qatlamini adabiyotshunosligidagi zamonaviylik konsepsiyasi bilan izohlash mumkin. György Lukács "*zamonaviy nasrni shaxsning tarixiy zamon bilan ziddiyatli munosabati ifodasi sifatida*" talqin qiladi. Uning fikricha, yangi davr adabiyotida inson yaxlit dunyoqarashdan mahrum bo'lib, shiddatli tarixiy jarayon ichida qaror qabul qilishga majbur qoladi (Lukács G., 1971, 23). "O'n soniya" qahramoni K. ham aynan shunday holatda tasvirlanadi: u poygada

faqat jismonan emas, balki ma'naviy jihatdan ham zamon bosimi ostida harakat qiladi. Orqaga yo'l yo'qligi, har bir lahzaning qaytmasligi hikoyaning asosiy falsafiy kayfiyatini belgilaydi.

Hikoyada bosh qahramonning ichki monologi yetakchi badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. U yugurishdan avval o'z tanasini, kuchini va raqiblarini emas, avvalo o'z ruhiy holatini sinovdan o'tkazadi. *“Hozir hammasi shu o'n soniyaga bog'liq”* degan mazmundagi ichki fikrlar qahramon ongida vaqtning mutlaq qiymatga aylanganini ko'rsatadi. Bu holat zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan psixologizm uslubiga xos bo'lib, voqelikdan ko'ra ong jarayonlari ustuvor ekanini bildiradi.

Hikoyaning badiiy strukturasi ichki monolog yetakchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Qahramon K.ning tashqi harakatlari emas, balki uning ong oqimi va ruhiy holatining o'zgarishlari asosiy e'tibor markazida turadi. Bu usul rus adabiyoti an'analari keng qo'llangan psixologizm uslubiga tayanadi. Adabiyotshunos L. Ginzburg ta'kidlaganidek, *“ichki monolog badiiy asarda shaxsning to'liq ochilishini ta'minlaydigan vosita”* (Ko'chimov U., 2024, 54) hisoblanadi.

Qahramon poyga boshlanishidan avval o'z kuchini sinaydi, tanasini tayyorlaydi, lekin eng muhimi – o'z ichki “men”i bilan muloqotga kirishadi. Uning ongida *“hammasi shu o'n soniyaga bog'liq”* degan fikr ustunlik qiladi. Bu jumla nafaqat sport natijalari, balki hayotiy tanlov va o'z-o'zini isbotlash bilan bog'liq ekzistensial muammolarni anglatadi. Rus formalisti Viktor Shklovskiy aytganidek, badiiy asarda *“tanish voqea g'ayrioddiy shakl orqali yangilanadi”* (Шкловский В. Б., 1983, 13). Xurshid Do'stmuhammad oddiy yugurish poygasini hayotning falsafiy ramziga aylantiradi.

Yuz odimlik masofa hikoyada oddiy sport yo'lagi emas, balki inson umrining ramziy modeli sifatida namoyon bo'ladi. Qahramon uchun bu masofa “bir umrga teng yo'l”dek tasavvur qilinadi. Muallif shu orqali inson hayoti ham qisqa, tezkor va qaytarilmas ekanini badiiy obraz darajasiga ko'taradi. Yugurish jarayonida qahramon nafaqat jismonan, balki ma'naviy jihatdan ham sinovdan o'tadi. Uning

ongida g'alaba, mag'lubiyat, o'zini isbotlash va boshqalardan ustun kelish istagi bilan birga, ichki shubha va xavotirlar ham kechadi. Hikoyaning falsafiy qatlami ekzistensializm g'oyalari bilan chambarchas bog'liq. Fransuz faylasufi Jan-Pol Sartr aytganidek, *"inson o'z tanlovlari orqali o'zini yaratadi"* (Sartr J.P., 1946, 28). "O'n soniya"da qahramon aynan shunday tanlash nuqtasida turadi. Poyga davomida u nafaqat jismoniy kuchini, balki ruhiy qat'iyatini ham namoyish etishi kerak. Har bir qadam, har bir nafas olish – bu uning erkin iroda namoyon bo'ladigan lahza. Yuz odimlik masofa hayotning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Marraga yetib borish muhim emas, muhimi – shu yo'lda insonning o'zini qanday tutishi, qanday his qilishi va nimani anglab etishidir. Bu qarash XX asr ekzistensial adabiyotida keng tarqalgan "yo'l – maqsad emas, jarayon" g'oyasini eslatadi.

Hikoyaning muhim jihatlaridan biri – raqobat motivining falsafiy talqinidir. Raqiblar aniq tavsiflanmaydi, ular shaxsiylashmagan obrazlar bo'lib, jamiyatdagi umumiy bosim, ijtimoiy raqobat va insonni doimiy harakatga majbur etuvchi kuchlarni ifodalaydi. Qahramon ularni ko'rarkan, "hamma mendan tezroq yugurayotgandek" degan ruhiy holatga tushadi. Bu jumla tashqi haqiqatdan ko'ra ichki qo'rquvning ifodasi bo'lib, insonning o'ziga nisbatan ishonchsizligini ochib beradi.

Hikoyaning til va uslub jihatidan soddaligi uning badiiy qiymatini kamaytirmaydi, aksincha, mazmunni yanada chuqurlashtiradi. Muallif murakkab tasvirlardan qochib, qisqa, aniq va lo'nda jumlar orqali ruhiy keskinlikni kuchaytiradi. Har bir jumla go'yo yugurish ritmiga mos ravishda qurilgandek taassurot uyg'otadi. Natijada o'quvchi ham qahramon bilan birga nafas olib, soniyalarni his qila Muallif bu yerda yuz odimli yugurishni nafaqat sport hodisasi, balki zamonaviy hayot falsafasining timsoli sifatida talqin qiladi. Matnning dastlabki jumlaridanoq umumlashtirish, ramziylik va falsafiy mushohada ustuvorlik qiladi:

"Hayot haqiqatlarini, hikmatlarini o'zida mujassam etgan timsol-tamsillarning sanog'i yo'q dunyoda."(Do'stmuhammad X., 2019. 3) Bu jumla

hikoyaning estetik kaliti bo‘lib, muallif real voqelikdan chiqib, uni badiiy-falsafiy makonga ko‘chirishini bildiradi. Adabiyot, san‘at va sportning bir qatorga qo‘yilishi bejiz emas: ular inson tafakkurining turli shakllari bo‘lsa-da, barchasi hayotni anglash va izohlashga xizmat qiladigan timsoliy tizimdir.

Yuz odimli masofa bu umr sarhadlari bilan tenglashtiriladi. Muallif vaqtni abstrakt tushuncha sifatida emas, balki insonni bo‘ysundirib ulgurgan, uning “orzu-havaslari”ni “mahv etayotgan” shiddatli kuch sifatida tasvirlaydi. Quyidagi jumlada shiddat deyarli tirik mavjudot darajasiga ko‘tariladi: “*Tezlik*”, “*shiddat*” deya nom olgan allatovur ko‘z ilg‘amas maxluqlar...” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3)

Bu yerda personifikatsiya badiiy vositasi orqali zamonaviy hayotning asosiy dardi ochiladi: inson endi shiddatni boshqarmaydi, aksincha, shiddat insonni boshqaradi. Muallif shiddatni “*halovatni yutib yuboruvchi*” kuch sifatida tasvirlab, an‘anaviy Sharqona bosiqlik, vazminlik qadriyatlarining yemirilayotganiga ishora qiladi. Bu jihat hikoyani madaniy-falsafiy kontekstga olib kiradi. Muallif tarixiy vaqt qatlamlarini ham badiiy eslatma orqali kiritadi. “*Avvallari yuz odimni yigirma soniyada bosib o‘tgan yuguruvchilarning qahramonga aylanishi, “endi ular qayerda?!”*” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3) degan ritorik savol bilan beriladi. Bu savol o‘tmish shon-shuhratining bugungi shiddat oldida qadrini yo‘qotganini bildiradi. Hayot mezonlari tez-tez almashmoqda, kechagi mo‘jiza bugun oddiy holga aylanmoqda.

Hikoyaning markaziy falsafiy cho‘qqisi quyidagi fikrda mujassam: “*Endi... endi esa yuz odimni ortda qoldirish uchun o‘n soniyadan ortig‘i – ortiq!*” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3) Bu jumla hikoyaning nomini falsafiy jihatdan ochiqlaydi. “O‘n soniya” endi rekord emas, balki hayot tomonidan majburiy qo‘yilgan talabdir. Inson imkoniyatlarining cheksizligi haqida gap ketar ekan, muallif bu cheksizlikning ortida inson ruhiyati uchun xavf ham yashiringanini sezdiradi: “*aqllar lol, tafakkurlar shiddat oldida mahzunu mazlum*”. (Do‘stmuhammad X., 2019. 3)

Keyingi epizodda hikoya umumiy falsafiy mushohadadan aniq dramatik

vaziyatga o'tadi. K.ning "*raqiblarga emas, o'ng yondagi "Qo'shni" qizga*" qarashi tasodifiy emas. Bu qarash orqali muallif erkak va ayol imkoniyatlarini bir vaqtning o'zida sinash g'oyasini ilgari suradi. K.ning ichki anglash lahzasi muhim: "*Tashkilotchilar yuz odimli masofani bosib o'tish asnosidagi sanoqli lahzalarda erkaklar nimalarga qodiru ayol-qizlar nimalarga qodirligini bir yo'la sinashga qaror qilishgan!*" (Do'stmuhammad X., 2019. 3) Bu yerda sport hodisasi ijtimoiy-falsafiy tajribaga aylanadi. Muallif gender masalasini ochiq bahsga tortmasdan, uni shiddatli hayot sharoitida insonning umumiy imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ko'rsatadi. Muhimi, ayol obrazi zaiflik timsoli emas, balki shiddatga moslashgan, raqobatbardosh kuch sifatida tasvirlanadi.

Start sahnasi nihoyatda dinamik va metaforik. Yugurish jarayoni hayot yo'li bilan qiyoslanadi: "*O'qning uzilishi – shiddatli hayot yo'lining boshlanishi, ortga yo'l yo'q...*" (Do'stmuhammad X., 2019. 3) Bu jumla butun hikoyaning falsafiy xulosasini o'zida mujassam etadi. Inson hayotga "otilgach", endi ortga qaytish imkoniga ega emas; u doim oldinga, "loaql bir qadam, loaql bir qarich" ilgarilashga majbur. Bu majburiyat tashqi bosim emas, balki zamonning ichki qonuniga aylangan.

K. obrazida muallif ongli shaxs modelini yaratadi. U har bir lahzani "*qaytmas boylik*" deb biladi. Bu jihat K.ni shunchaki poygachi emas, balki hayot falsafasini anglayotgan inson sifatida ko'rsatadi. Beshinchi soniyada "Qo'shni"ga qarashi esa dramatik burilish nuqtasidir. Qiz obrazining "*tortinchoq, iboli, hayoli*" qilib tasvirlanishi shiddat va noziklikning paradoksal uyg'unligini yaratadi.

Ayol poygachining tasviri estetik jihatdan ham, g'oyaviy jihatdan ham muhim. U "*ohu misol yugurib boradi*", (Do'stmuhammad X., 2019. 3) uning harakati nafislik va kuchning birligidan dalolat beradi. Bu orqali muallif zamonaviy ayol obrazini romantik ideal sifatida emas, balki shiddatli zamonning teng huquqli ishtirokchisi sifatida yaratadi.

Xurshid Do'stmuhammadning "O'n soniya" hikoyasining eng yuqori dramatik va falsafiy nuqtasi sifatida muallif yuz odimli yugurishni nafaqat jismoniy

harakat, balki inson hayotining ontologik modeli sifatida tasvirlashida ko‘rishimiz mumkin. Harakat boshlanishi bilan hayot yo‘li boshlanishi o‘rtasida to‘liq badiiy paralellik yaratiladi.

“*Oyoqlar tirgovuchga qadaldi... soatning eng tezkor va shiddatli o‘lchov mili joyidan qo‘zg‘aldi*” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3) jumlasini sport texnikasini tasvirlashdan ko‘ra, vaqt mexanizmining ishga tushishi, ya’ni shaxs taqdirining harakatga kelishini anglatadi. Bu holatda vaqt passiv tushuncha emas, balki insonni oldinga “itqitib yuboruvchi” kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif shu bilan zamonaviy hayotda inson irodasi va vaqt bosimi o‘rtasidagi murakkab munosabatni badiiylashtiradi.

Yuqoridagi parchaning dastlabki qismida shiddat mutlaq qonun darajasiga ko‘tariladi. “*Bir qadam hayallash tuzatib bo‘lmas armonu afsuslarga olib borishi muqarrar*” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3) degan fikr sport qoidasi sifatida emas, balki hayot qonuni sifatida yangraydi. Bu yerda muallif shaxs tanlovining kechiktirilmasligini, zamonaviy insonning “to‘xtash huquqi” deyarli yo‘qolganini ifodalaydi. “*O‘qning uzilishi – shiddatli hayot yo‘lining boshlanishi*” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3) metaforasi esa hayotga kirish jarayonini qaytmas, keskin va og‘riqli akt sifatida talqin qiladi.

K. obrazi aynan shu shiddatli oqim ichida shakllanadi. U poygada tajribali, har bir qadamini “*avvaldan o‘ylab qo‘yadigan*” shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Bu jihat K.ni tasodifiy qahramon emas, balki hayotda ham muayyan tartib va hisob bilan yashashga intiluvchi ongli inson sifatida belgilaydi. Uning “*lahzaning lahzasini qaytmas boylik*” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3) deb bilishi vaqtning estetik va falsafiy qiymatini anglash darajasiga ko‘tarilgan tafakkurni ko‘rsatadi.

Beshinchi soniyada “Qo‘shni” qizning paydo bo‘lishi hikoyaning badiiy burilish nuqtasidir. Bu lahzadan boshlab shiddat va raqobat mantig‘iga insoniy tuyg‘u aralasha boshlaydi. Qiz obrazining “*tortinchoq, iboli, hayoli*” (Do‘stmuhammad X., 2019. 3) tarzda tasvirlanishi shiddatli zamon fonida noziklik va ichki madaniyat timsoli sifatida xizmat qiladi. Muallif shu orqali shiddatga

butunlay singib ketmagan, hali insoniy latofatini yo‘qotmagan ruhiy holat mavjudligini ko‘rsatadi.

Yettinchi soniyada K.ning ichki ikkilanmasi kuchayadi. U tezlikni oshirsa, qizdan uzoqlashishini, oshirmasa, g‘alabani boy berishini anglaydi. Bu holat oddiy sport dilemma emas, balki inson hayotidagi axloqiy tanlov modelidir. G‘alaba va insoniy yaqinlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik K. ongida keskin dramatik vaziyatni yuzaga keltiradi. Shu nuqtada hikoya sport syujetidan chiqib, insoniy qadriyatlar haqidagi falsafiy matnga aylanadi.

K.ning o‘tmishi – ota-ona bosimi, “ko‘z ostiga olish”, “jigaridan urish” kabi iboralar orqali berilgan ijtimoiy kontekst – uning bu tanlovga nega bunchalik ta’sirchan munosabat bildirayotganini izohlaydi. Qizga qarash, uning “qadam olishi”ni kuzatish K. uchun ilk bor hayotiy uyg‘onish, hissiy anglash jarayoniga aylanadi. Shu jihatdan qiz obrazi faqat romantik obraz emas, balki K.ning ichki dunyosini harakatga keltiruvchi katalizator vazifasini bajaradi.

To‘qqizinchi soniyada muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri falsafiy umumlashtirishga o‘tadi: *“Hayot shu, umr yo‘li shu.”* Bu jumla butun hikoyaning konseptual markazini ochib beradi. Yuz odim va o‘n soniya inson umrining ramziy ekvivalenti sifatida talqin qilinadi. Anglangan va anglanmagan lahzalar o‘rtasidagi nisbat hayot mazmunining asosiy mezoniga aylanadi. Bu yerda muallif o‘quvchini poyga natijasidan ko‘ra hayotni anglash darajasi haqida o‘ylashga majbur qiladi.

O‘ninchi soniyada marra sahnasi an’anaviy sport g‘alabasi tarzida emas, balki insoniy birlashuv manzarasi sifatida tasvirlanadi. K.ning qiz qo‘lini tutib olishi – bu jismoniy harakat emas, balki shiddat qonunlariga qarshi qo‘yilgan insoniy jasoratdir. Eng muhim jihat shundaki, qiz qo‘lini tortib olmaydi. Shu orqali muallif g‘alabani raqam yoki rekord emas, balki insoniy yaqinlik va ma’naviy topilma sifatida talqin qiladi. Olqishlar, musiqa, gullar fonida K. va qizning “o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishlari” zamonaviy hayot shiddatida kamdan-kam uchraydigan ruhiy ozodlik holatini ifodalaydi. K. o‘zini g‘olibdek his qiladi, ammo bu g‘alaba jismoniy emas, balki ruhiy va ma’naviy g‘alabadir.

Hikoyaning yakuni ochiq qolgan bo‘lib, g‘alaba yoki mag‘lubiyat aniq aytilmaydi. Bu badiiy yechim muallifning asosiy maqsadi sport natijasini emas, balki insonning o‘zini anglash jarayonini tasvirlash ekanini ko‘rsatadi. Hikoyaning muhim badiiy xususiyatlaridan biri ham aynan uning ramziyligi va ochiq yakunidir. Poyga natijasi aniq berilmaydi, g‘olib aniqlanmaydi. Bu yechim tasodifiy emas. Italyan adabiyotshunosi Umberto Ekoning “*Ochiq asar*” nazariyasiga ko‘ra, badiiy matn bir necha talqinga yo‘l ochadigan tuzilishga ega bo‘lishi mumkin (Eko U., 22) Do‘stmuhammad ham o‘quvchini aniq javob berish o‘rniga, fikr yuritishga undaydi. Chunki hikoya davomida muhim bo‘lgan narsa marraga birinchi bo‘lib yetib kelish emas, balki shu o‘n soniya ichida qahramonning o‘z ichki “men”i bilan yuzma-yuz kelishidir.

Xulosa qilib aytganda, “O‘n soniya” hikoyasi zamonaviy o‘zbek nasrida vaqt, shaxs va ong muammolarini ramziy-psixologik talqin orqali ochib bergan asar sifatida ahamiyatlidir. U sport voqeasi niqobi ostida inson hayotining mohiyati, tezkor qarorlar va ularning ma’naviy oqibatlarini haqida chuqur falsafiy mulohaza yuritadi. Hikoya o‘quvchini oddiy voqeani kuzatuvchi emas, balki o‘z hayotidagi “o‘n soniyalar” ustida o‘ylashga chorlovchi badiiy matnga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bergson H. Time and Free Will: An Essay on the Immediate Data of Consciousness. – London: George Allen & Unwin, 1910. – 232 p.
2. Do‘stmuhammad Xurshid. O‘n soniya. (hikoya). /O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent: 2019, №2 (4504) – B. 3.
3. Eco U. The Open Work. Translated by A. Cancogni. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. – 285 p.
4. Ko‘chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi. Monografiya. – Toshkent: “Samo nashr”, 2024. – 123 b.
5. Lukács G. The Theory of the Novel. – Cambridge, MA: MIT Press, 1971. – 160 p.

6. Sartre J.-P. *L'existentialisme est un humanisme*. – Paris: Nagel, 1946. – 109 p.
7. To'rayeva B., Ko'chimov U. *Adabiyotshunoslik [Matn]: darslik / To'rayeva B., Ko'chimov U.* – Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2022. – 192 b.
8. Бахтин М. М. *Вопросы литературы и эстетики*. – Москва: Художественная литература, 1975. – 504 с.
9. Шкловский В. Б. *Искусство как прием // О теории прозы*. – Москва: Советский писатель, 1983. – С. 9–25.
10. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/xurshid-dostmuhammad/xurshid-dostmuhammad-un-soniya-hikoya/?lng=lat> (Murojaat sanasi 21.11.2025)

REFERENCES

1. Bergson, H. (1910). *Time and free will: An essay on the immediate data of consciousness*. George Allen & Unwin.
2. Do'stmuhammad, X. (2019). O'n soniya [Short story]. *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, (2/4504), 3.
3. Eco, U. (1989). *The open work* (A. Cancogni, Trans.). Harvard University Press.
4. Ko'chimov, U. (2024). *Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi* [The concept of artistic psychologism in fantastic works]. Samo nashr.
5. Lukács, G. (1971). *The theory of the novel*. MIT Press.
6. Sartre, J.-P. (1946). *L'existentialisme est un humanisme*. Nagel.
7. To'rayeva, B., & Ko'chimov, U. (2022). *Adabiyotshunoslik* [Literary studies]. Malik Print Co.
8. Bakhtin, M. M. (1975). *Voprosy literatury i estetiki* [Questions of literature and aesthetics]. Khudozhestvennaya literatura.
9. Shklovsky, V. B. (1983). Art as device. In *O teorii prozy* (pp. 9–25). Sovetskiy pisatel.
10. *Xurshid Do'stmuhammad: O'n soniya*. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/xurshid-dostmuhammad/xurshid-dostmuhammad-un-soniya-hikoya/?lng=lat>